



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2021-yil 24-avgust

4/21-5/15-son

### **Barcha oliy ta’lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga**

*ZOOM platformasi orqali  
yig‘ilish o‘tkazish to‘g‘risida.*

*Konfrensiyaga kirish identifikatori: 638 251 0738*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qish uchun ta’lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 527–son qarori, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi kengaytirilgan Apparati kengashi yig‘ilishi bayonining ijrosini ta’minlash hamda to‘lov kontrakt tushumlarini to‘g‘ri hisobga olinishi va talabalarga ta’lim kreditlari ajratish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish maqsadida joriy yilning 25-avgust kuni soat 16:00 da oliy ta’lim muassasalari va filiallarining O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori (direktori o‘rinbosari), Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori (direktor o‘rinbosari, Ishlar boshqarmasi boshlig‘i), Bosh buxgalterlar, Reja-moliya bo‘limi, Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi hamda Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshliqlari ishtirokida ZOOM platformasi orqali seminar o‘tkazilishi belgilandi.

Sizdan ushbu seminar ishtirokchilarini kun tartibidagi masalalar bo‘yicha tayyor holatda qatnashishlarini ta’minlab berishingizni so‘raymiz.

Mazkur seminarni texnik jihatdan yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari ZOOM platformasi orqali **2021-yilning 25-avgust kuni soat 16:00 da** tarmoqqa ulangan va ishchi holatda bo‘lishini ta’minlashlari so‘raladi.

**Vazir o‘rinbosari**



**S.Buzrukxonov**